XALQ DEPUTATLARI NUROBOD TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-16-129-7-99-K/25 Nurobod tumani

Nurobod tumanining 2025-yil IV chorak mahalliy byudjeti daromadlari va xarajatlarini balansliligini buzmagan holda ko‘paytirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “O‘zbekiston mahallalari uyushmalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-402-son qarori ijrosini ta’minlash hamda O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksining 127-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Nurobod tumani Kengashi yettinchi chaqiriq, o‘n oltinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “O‘zbekiston mahallalari uyushmalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-402-son qaroriga asosan tumandagi jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha undirilgan mablag‘larning (noturar joylar bo‘yicha undiriladigan mol-mulk va yer solig‘i bundan mustasno) 10 foizini mahalla jamg‘armasiga o‘tkazishdan yuzaga kelgan farqni qoplash uchun 835 751,0 ming (sakkiz yuz uttiz besh million yetti yuz ellik bir ming) so‘m mablag‘ zarurligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston mahallalar uyushmasi Nurobod tumani bo‘limi tasarrufidagi mahallalarning “Mahalla jamg‘armasi”ga jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha undirilgan mablag‘larning (noturar joylar bo‘yicha undiriladigan mol-mulk va yer solig‘i bundan mustasno) 10 foizini o‘tkazishdan yuzaga kelgan farqni qoplash uchun Samarqand viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi bilan kelishilgan holda, xalq deputatlari Nurobod tumani

Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-020-7-99-K/24-son qarori 1-ilovasidagi 8-bandi hamda 2-ilovasidagi 9-bandlari tuman mahalliy byudjeti hisobidan Nurobod tumani mahalliy byudjetining 2025-yil IV chorak daromadlari va xarajatlarini 835 751,0 ming (sakkiz yuz uttiz besh million yetti yuz ellik bir ming) so‘m ilovaga muvofiq oshirilsin.

3. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari (G‘.Musurmanov) Nurobod tumani mahalliy byudjetining 2025-yil IV chorak daromadlari va xarajatlari rejalariga tegishli o‘zgartirish kiritsin.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Suyarov) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (R.Ibragimov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **BURANOV MAXSUD ERKINOVICH**

Xalq deputatlari Nurobod tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-129-7-99-K/25 -son qaroriga
1-ilova

a) Xalq deputatlari Nurobod tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-020-7-99-K/24-son qarori 1-ilovasidagi 8-bandi Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

(ming so‘mda)

Soliq turi	Tasdiqlangan parametr	Parametrga kiritilayotgan o‘zgarish so‘mmasi	Jami
Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	12 291 000	835 751	13 126 751

b) Xalq deputatlari Nurobod tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-020-7-99-K/24-son qarori 2-ilovasidagi 9-bandi “Mahalla byudjeti” jamg‘armasi mablag‘lari pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

(ming so‘mda)

Xarajat turi	Tasdiqlangan parametr	Parametrga kiritilayotgan o‘zgarish so‘mmasi	Jami
“Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lari	1 414 000	835 751	2 249 751